

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TEMIRXO‘JAYEVA ODINAXON NAJMIDDINOVNA**

**GIPERTONIYA KASALLIKLARINI XALQ TABOBATI BILAN  
DAVOLASH UCHUN TOVARLAR OLIH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi  
14.00.41 - Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtorefarati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

<b>Temirxo‘jayeva Odinaxon Najmiddinovna</b> Gipertoniya kasalliklarini xalq tabobati bilan davolash uchun tovarlar olish va ularni sinflash .....	3
<b>Темирхужаева Одинахон Нажмиддиновна</b> Получение и классификация товаров для лечения гипертонических заболеваний средствами народной медицины. ....	21
<b>Temirkhujaeva Odinakhon Najmiddinovna</b> Preparation and classification of goods for the treatment of hypertension using traditional medicine.....	39
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TEMIRXO‘JAYEVA ODINAXON NAJMIDDINOVNA**

**GIPERTONIYA KASALLIKLARINI XALQ TABOBATI BILAN  
DAVOLASH UCHUN TOVARLAR OLIH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi  
14.00.41 - Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/K855 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

(Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasida (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.)

**Ilmiy rahbarlar:**

**Asqarov Ibrohim Rahmonovich**  
kimyo fanlari doktori, professor  
**Mo'minjonov Mirjalol Muqimjon o'g'li**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xo'jayev Vahobjon Umarovich**  
kimyo fanlari doktori, professor,  
**Mamatqulova Surayyo Abdusamatovna**  
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat tibbiyot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "11" "11" soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33 e-mail: agsu\_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "11" "11" kuni tarqatildi.  
(2024 yil "11" "11" dagi "13" raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Sh.M.Kirgizov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, k.f.d., professor

**Sh.X.Abdulloyev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi v.b., k.f.d., professor

**M.M.Xojimatov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash, ular asosida inson organizmi uchun foydali bo‘lgan, bezarar tabiiy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish muhim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada, turli vegetatsion davrlardagi dorivor o‘simliklarning qismlari asosida sintetik dori vositalariga yordamchi bo‘ladigan, tarkibida biologik faol birikmalar, makro- va mikroelementlar saqlagan tabiiy, zararsiz va ekologik toza oziq-ovqat qo‘shimlarini ishlab chiqish hamda xalq tabobatida qo‘llash alohida ahamiyatga ega.

Jahonda dorivor o‘simliklar asosida gipertoniya kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy, ekologik toza, immunitetni oshiruvchi hamda ayrim sintetik preparatlarni o‘rnini bosuvchi biologik faol oziq-ovqat qo‘shimlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, yalpiz, jambil, ajgon kabi mahalliy o‘simliklar qismlarining kimyoviy tarkibini zamonaviy usullar yordamida aniqlash, ular asosida yurak qon-tomir kasalliklari, jumladan, gipertoniya kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shimlari yaratish, ularning kimyoviy tarkibi va biologik faolligini aniqlash, hamda ularga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha yangi tovar kod raqamlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda mahalliy o‘simliklarning urug‘i, poyasi, ildizi kabi qismlari asosida yurak qon-tomir kasalliklari, jumladan, gipertoniya kasalligini oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shimlari ishlab chiqish bo‘yicha muayyan natijalariga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> “Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish” bo‘yicha amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, tarkibida tabiiy antibiotiklar, dyuretiklar, immunitetni oshiruvchi, tromblarni erituvchi birikmalar saqlagan zira, yalpiz, ajgon, jambil kabi dorivor o‘simliklar asosida tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shimlarini yaratish, ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalari aniqlash hamda ularga TIF TN bo‘yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son «2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, shuningdek, PF-4668-son “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda etishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi hamda 2018 yil 12 oktyabrdagi PQ-3968 - son «O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va farmonlarini amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyoda dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash, hamda ulardan foydalanib, bemorlarni davolash bo'yicha ko'pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yalpizning kimyoviy tarkibini Xitoylik olimlardan Zhao BT, Kim TI, Kim YH, Kang JS, Min BS, Son JK, Woo MH., Yaponiyalik olimlar Cao G, Shan Q, Li X, Cong X, Zhang Y, Cai H, Cai B. o'rgangan. D.E. Ibrogimov, Sh.X. Usmonova kabi Tojikistonlik olimlar zira (*Bunium persicum*) tarkibidagi efir moylari miqdorini aniqlaganlar. Hindistonlik Sabreena Rashid, Zahoor A Kaloo, Seema Singh, Iram Bashir va boshqa olimlar zira tarkibidagi polifenollar miqdorini aniqlaganlar. Rossiyalik Y.V.Tanskaya, Moeen F. va boshqa olimlar jambil (*Satureia hortensis L.*) o'simligi tarkibidagi efir moylar, vitaminlar va flavonoidlarni tadqiq qilib, ajratib olingan birikmalarning tuzilishini aniqlaganlar. Shuningdek, Blinova K. F. va boshqa olimlar ajgon (*Trachyspermum ammi*) (hind zirasi) tarkibidagi oqsillar, aminokislotalar, efir moylar, moy kislotalari miqdorini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Respublikamizda ushbu tadqiqot yo'nalishida kimyo fanlari doktori, professor I.R. Asqarov, t.f.d., professor X.Isaqov, kimyo fanlari doktorlari, professor Y.T.Isayev, professor O.Sh.Abdullayev, dotsent M.M.Mo'minjonov, professor I.Y.Mamatova, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktorlari M.N.Abdullayev, dotsent A.S.Xojiqulov, D.U.Egamberdiyev kabi olimlar mahalliy dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash asosida saraton, qandli diabed, psoriaz, gepatit, kamqonlik kabi kasalliklarni davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etganlar. Shuningdek, kasalliklarni oldini oluvchi va davolovchi dorivor o'simliklar tarkibidan biologik faol birikmalarni aniqlash, ular asosida dori vositalari va oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish ustida ko'plab o'zbek olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Hozirgi kunda zira, ajgon, yalpiz, kiyiko't asosida gipertoniya kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan kompozitsion oziq-ovqat qo'shilmalari yaratilmagan, tibbiyot amaliyotida, jumladan, gipertoniya kasalligini oldini oluvchi va davolashga yordam beruvchi sifatida foydalanilmagan, olingan oziq-ovqat qo'shilmalariga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi qoidalari bo'yicha yangi xalqaro tovar kodlari ishlab chiqilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishi zira, jambil, kiyiko't, ajgon, yalpiz o'simliklari asosida yangi turdagi kompozitsion oziq-ovqat qo'shilmasini yaratish, yaratilgan oziq-ovqat qo'shilmasining gipertoniya kasalligini oldini olish va davolash xususiyatini aniqlash, hamda unga kimyoviy tarkibi asosida tegishli yangi tovar kod

raqami ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kabi muammolarni hal etishga yo'naltirildi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Xalq tabobati va xalq xo'jaligida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** zira, yalpiz, ajgon, jambil, kiyiko't o'simliklari asosida gipertoniya kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish, hamda ularni kimyoviy tarkibini aniqlash asosida TIF TN bo'yicha sinflashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

zira, yalpiz, ajgon, jambil, kiyiko't o'simliklari asosida gipertoniya kasalligini davolash xususiyatiga ega tabiiy, shifobaxsh kompozitsion oziq-ovqat qo'shimasi ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi makro- va mikro elementlar miqdorini induksion bog'langan plazmali optik emission spektrometri yordamida aniqlash;

yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida ishlab chiqilgan oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar va polifenollar miqdorini aniqlash;

ishlab chiqilgan yangi oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi uglevodlar, umumiy oqsillar va ularning tarkibini kimyoviy analiz usullari yordamida aniqlash;

*in vitro* sharoitida, ishlab chiqilgan yangi oziq-ovqat qo'shilmasining antioksidantlik faolligini adrenalinni autooksidlanishi reaksiyasini ingibirlashga asoslangan spektrofotometrik usul yordamida aniqlash;

yangi oziq-ovqat qo'shilmasining yurak faoliyatini yaxshilash va gipertoniya kasalligini davolash xususiyatini baholash;

yangi oziq-ovqat qo'shilmasi uchun kimyoviy tarkibi asosida tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo'yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

**Tadqiqotning obykti** sifatida zira, yalpiz, ajgon, jambil, kiyiko't o'simliklari hamda ular asosida ishlab chiqilgan gipertoniya qarshi faollikka ega tabiiy oziq-ovqat qo'shilmasi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** zira, yalpiz, ajgon, jambil, kiyiko't o'simliklari asosida gipertoniya qarshi yangi oziq-ovqat qo'shilmasini olish, uning kimyoviy tarkibi, biologik faolliklarini aniqlash hamda oziq-ovqat qo'shilmasi sifatida sinflash tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida ekstraksiya, induktiv bog'langan plazmali optik emission spektrometriya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, spektrofotometriya, kimyoviy analiz, biologik faollikni aniqlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi 61 ta makro- va mikroelementlar miqdori induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektometriya usulida aniqlanib, ular orasida Na, K, Ca, P, Mg, Al, Fe, Cu, Sr, Zn, Mn kabi hayotiy zarur elementlarning miqdori boshqalarga nisbatan yuqori ekanligi isbotlangan;

“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida qon bosimini tushirishga yordam beruvchi vitamin C miqdori boshqa shu tipdagi vitaminlarga nisbatan yuqori ekanligi, hamda suvda eruvchan vitaminlar miqdori C>PP>B2>B6>B9>B2 tartibda kamayib borishi YuSSX usuli yordamida aniqlangan;

“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi uglevodlar miqdori aniqlanganda, suvda eruvchan uglevodlar miqdoriy jihatdan spirtida eruvchi uglevodlar, pektin moddalar va gemisellulozalarga nisbatan yuqori ekanligi isbotlangan;

“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi umumiy oqsil miqdori 19,4% ni tashkil etishi, hamda uning 63,7% i glyutelinlar, 46,3% i esa albuminlar ekanligi kimyoviy analiz yordamida aniqlangan;

“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida qon tarkibidagi toksinlar va tromb hosil qiluvchi moddalarni parchalash xususiyatiga ega bo‘lgan rutin, kversetin, digidrokversetin, lyuteolin, hamda kam sonli o‘simliklar tarkibida uchraydigan, dyuretik xususiyatli senerozid, salidrozd kabi polifenollar mavjud ekanligi YuSSX usuli yordamida isbotlangan;

Gipertoniya bilan kasallangan va yurak faoliyati anormal bemorlarni davolash bo‘yicha olib borilgan klinik tadqiqotlar natijasida “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasining gipertoniya kasalligini davolash hamda yurak faoliyatini yaxshilash xususiyatiga ega ekanligi aniqlangan.

“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi qoidalari bo‘yicha, kimyoviy tarkibi asosida, shifobaxsh, tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasi sifatida sinflangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

zira, yalpiz, ajgon, jambil, kiyiko‘t o‘simliklari asosida “Asbosim” nomli tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasi ishlab chiqilgan;

zira, yalpiz, ajgon, jambil, kiyiko‘t o‘simliklari asosida “Asbosim” tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish uchun texnologik yo‘riqnoma yaratilgan;

tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi uchun, uning kimyoviy tarkibi asosida yangi xalqaro tovar kod raqami ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi “Asbosim” tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasining kimyoviy tarkibi va biologik faolligini aniqlashda, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, induktiv bog‘langan plazmali emission spektrofotometriya va boshqa miqdoriy analiz usullari, spektrofotometriya hamda biologik faollikni aniqlash usullaridan foydalanilganligi, olingan ilmiy natijalarning nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, amaliy natijalarini vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining

ilmiy ahamiyati “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, induktiv bog‘langan plazmali emission spektrofotometriya va boshqa miqdoriy analiz usullari, spektrofotometriya hamda biologik faollikni aniqlash usullari yordamida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zira, yalpiz, ajgon, jambil, kiyiko‘t o‘simliklari asosida “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasining ishlab chiqilganligi, uni ishlab chiqarish uchun retsept, tashkilot standarti, texnologik yo‘riqnoma yaratilganligi, hamda mazkur oziq-ovqat qo‘silmasi uchun TIF TN bo‘yicha yangi tovar kod raqami ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** zira, yalpiz, ajgon, jambil, kiyiko‘t o‘simliklari asosida gipertoniya kasalligini davolash xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqish, kimyoviy tarkibini aniqlash va sinflash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish uchun O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligidan ruxsatnoma olingan (№ 001397, 2022 y., O‘zbekiston Respublikasi Milliy Sertifikatlash tizimining 2021 yildagi muvofiqlik sertifikatini). Natijada, zira, yalpiz, ajgon, jambil, kiyiko‘t o‘simliklari asosida tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqarish imkonini bergan;

“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasiga TIF TN bo‘yicha sinflanib “Zira, jambil, yalpiz, kiyiko‘t o‘simliklari asosida tayyorlangan, tarkibida mentol, lyutionin, rutin, digidrokversetin, senerozid, salidrozd birikmalarini saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari, dori vositasi emas” uchun – 1212 30 150 2 tovar kodi ishlab chiqilib bojxona amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2024 yil 20 iyundagi №17/05-24-1186 -son ma‘lumotnomasi). Natijada, shu kabi oziq-ovqat qo‘shilmalarini eksport va import qilishda ulardan undiriladigan boj to‘lovlarini nazorat qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 7 ta maqola respublika va 1 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 104 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘yekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan,

tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Gipertoniya kasalligi, uni davolashda qo'llaniladigan dorivor mahsulotlar va o'simliklar. tovarlar kimyosi va xalq tabobati fanlarining istiqbollari (Adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va muammoning o'rganilganlik darajasi batafsil tahlil qilingan. Bu borada gipertoniya kasalligi, uni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari, shuningdek, xalq tabobatida mazkur kasallikni davolashda qo'llaniladigan zira (*Bunium persicum L.*), yalpiz (*Mentha haplocalyx L.*), jambil (*Satureia hortensis L.*), ajgon (*Trachyspermum ammi L.*), kiyiko't (*Ziziphora pamiroalaica L.*) o'simliklarining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari to'g'risidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, mamlakatimizda yaratilgan Tovarlar kimyosi va Xalq tabobati fanlari, oziq-ovqat qo'shilmalarini TIF TN bo'yicha sinflash borasidagi muammolar haqida so'z yuritilgan.

Dissertatsiyaning **“Ayrim o'simliklar asosida gipertoniya kasalligi uchun oziq-ovqat qo'shilmasi ishlab chiqish va uning kimyoviy tarkibi hamda biologik faolligini aniqlash natijalari (olingan natijalar muhokamasi)”** deb nomlangan ikkinchi bobida zira (*Bunium persicum L.*), yalpiz (*Mentha haplocalyx L.*), jambil (*Satureia hortensis L.*), ajgon (*Trachyspermum ammi L.*), kiyiko't (*Ziziphora pamiroalaica L.*) o'simliklari asosida ishlab chiqilgan yangi “Asbosim” oziq-ovqat qo'shilmasi, ushbu oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi makro- va mikroelementlar, suvda eruvchan vitaminlar, polifenollar, umumiy oqsillar va uglevodlar miqdorini aniqlash natijalari, shuningdek, uning antioksidant faolligi, yurak faoliyatini yaxshilash va gipertoniya kasalligini davolash xususiyatlarini aniqlash hamda TIF TN bo'yicha sinflash borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

zira (*Bunium persicum L.*), yalpiz (*Mentha haplocalyx L.*), jambil (*Satureia hortensis L.*), ajgon (*Trachyspermum ammi L.*), kiyiko't (*Ziziphora pamiroalaica L.*) o'simliklari asosida “Asbosim” oziq-ovqat qo'shilmagini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan xom ashyo va materiallar GOST 24297 talablariga muvofiq amalga oshirildi. Zaxarli og'ir elementlarning tarkibi, pestitsidlarning qoldiq miqdori, radionuklidlar va mikrobiologik ko'rsatkichlar SanQM 0283 da belgilangan talablarga muvofiqligi tekshirildi. Natijada, “Asbosim” oziq-ovqat qo'shilmasiidagi mazkur ko'rsatkichlar belgilangan me'yorlarga mos kelishi tasdiqlandi (SEOM xulosasi). Oziq-ovqat qo'shilmalaridagi fizik-kimyoviy va xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan usullar bo'yicha belgilangan tartibda amalga oshirilgan.

**“Asbosim” oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini aniqlash natijalari.** Ma'lumki, aksariyat suvda eruvchan vitaminlar organizm immunitetini ko'tarish, turli kasalliklarni kelib chiqishini oldini olish xususiyatiga ega. Jumladan, vitamin C qon aylanishini yaxshilash va suyultirish

evaziga qon bosimini tushirish xususiyatiga ega. Shuning uchun ham, “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar tarkibini aniqlandi. Quyida “Asbosim” tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan (1-rasm va 1-jadval). Oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini Yaponiyaning Shimadzu kompaniyasida ishlab chiqarilgan LC-40 Nexera Lite yuqori samarali suyuqlik xromatografida amalga oshirildi.



1-rasm. “Asbosim” ekstrakti tarkibidagi vitaminlarni aniqlash xromatogrammasi.

Yuqoridagi 1-rasmdan ko‘rish mumkinki, “Asbosim” ekstrakti tarkibida B1, B2, B9, B6, C, PP vitaminlari mavjud. Ulaning miqdori quyidagi 1-jadvalda berilgan.

1-jadval.

“Asbosim” ekstrakti tarkibidagi vitaminlarning miqdori va ushlanish vaqtlari.

Vitamin	Ushlanish vaqti, sek	Konsentratsiya, mg/l	100 g namunadagi miqdor, mg
Vitamin B1	2,062	0,133	3,325
Vitamin B9	13,651	0,299	7,475
Vitamin B2	15,469	1,662	41,550
Vitamin B6	3,585	0,563	14,075
Vitamin C	2,627	5,441	136,025
Vitamin PP	16,88	3,236	81,05

Yuqoridagi 1-jadvaldan “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida vitamin C miqdori (136,025 mg/100g) boshqalarga nisbatan sezilarli darajada ko‘p ekanligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, “Asbosim” tarkibidagi vitaminlar miqdori C>PP>B2>B6>B9>B2 tartibda kamayib borishi yuqoridagi jadvaldan ma’lum.

Ma’lumki, amerikalik olimlar tomonidan vitamin C ning yuqori qon bosimini davolash vositalaridan biri ekanligini isbotlashgan. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar sistolik va diastolik qon bosimini normallashtirishda C vitaminining ta’siri yuqo ekanligi kuzatilgan. Bu esa, “Asbosim” tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida C vitaminining miqdori ko‘pligi sababli, u gipertoniya kasalligini davolash

va oldini olishda yuqori biologik faollik namoyon etadi, deyishga katta ilmiy asos hisoblanadi.

**“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdorini aniqlash.** Gipertoniya kasalligini davolash va oldini olish maqsadida taklif etilayotgan “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi makro- va mikroelementlarning sifatii va miqdoriy tahlilii o‘rganildi. Oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdorini aniqlash tajribasi Thermo Fisher Scientific (AQSh) tomonidan ishlab chiqarilgan iCAP PRO X Duo ICP-OES induksion bog‘langan plazmali optik emission spektometri yordamida amalga oshirildi. Analiz natijalari quyidagi 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval.

Namuna tarkibidagi kimyoviy elementlarni IBP-OES usulida aniqlash natijalari.

<b>Analit</b>	<b>miqdor, mkg/100g</b>	<b>Analit</b>	<b>miqdor, mkg/100g</b>
<b>Al 167.079</b>	<b>6 309 440,16</b>	V 309.311	91,72
<b>P 177.495</b>	<b>10 151 437,90</b>	Nb 309.41	44,73
As 189.042	64,12	Be 313.04	3,61
Sn 189.989	1 503,43	Er 323.058	56,11
Tl 190.856	23,99	<b>Cu 324.75</b>	<b>2 681,05</b>
Se 196.090	9,97	In 325.609	46,78
Mo 202.03	150,20	Ag 328.068	13,57
Sb 206.833	43,34	Yb 328.937	1,37
Zn 213.856	3 867,47	La 333.749	45,52
Rb 214.383	2 655,05	Ti 334.941	1 530,09
Pb 220.353	299,32	Gd 335.047	359,03
Ni 221.647	304,66	Hf 339.980	72,38
Bi 223.061	81,22	Tm 342.5	44,54
Re 227.525	7 848,89	Zr 343.823	18,66
Cd 228.802	39,64	Ho 345.600	22,37
Te 238.578	336,35	Tb 350.917	51,98
Co 238.892	1 826,55	Sc 361.384	13,58
W 239.709	66,94	Sm 363.43	1 252,47
B 249.773	1 801,88	Y 371.030	9,63
Si 251.611	2 447,96	Nd 378.425	85,14
Mn 257.61	3 992,32	Eu 381.967	14,87
<b>Fe 259.940</b>	<b>169 215,08</b>	Pr 390.844	319,11
Lu 261.542	13,90	<b>Ca 393.366</b>	<b>231 103,03</b>
U 264.547	521,54	Dy 400.045	5,67
Ge 265.118	22,75	Sr 407.771	17 903,59
Ta 268.517	4,95	Ce 413.765	4,32
<b>Mg 279.55</b>	<b>401 164,34</b>	Ba 455.403	1 913,11
Th 283.231	717,16	<b>Na 589.59</b>	<b>526 829,59</b>
Cr 283.563	842,06	Li 670.784	3 210,99
Ga 294.364	49,20	<b>K 766.490</b>	<b>5 055 870,48</b>
Cs 852.113	3 486,04		

Yuqoridagi jadvaldan “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida inson hayoti uchun muhim bo‘lgan P, K, Na, Mg, Al, Ca, Fe, Cu kabi elementlarning miqdori boshqalarga nisbatan sezilarli darajada ko‘peknligini ko‘rish mumkin. “Asbosim”

oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida P, K, Na, Mg, Al, Ca, Fe, Cu kabi elementlarning miqdori boshqalarga nisbatan sezilarli darajada ko‘p bo‘lib, ular yurak qon-tomir kasalliklarini davolash va oldini olishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, ular orasida kaliy K, natriy Na, Mg kabilarning mavjudligi mazkur oziq-ovqat qo‘shilmasiga gipertoniya kasalligini davolash va oldini olish xususiyatini bag‘ishlaydi.

**“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi uglevodlar va oqsillar tarkibi va miqdorini aniqlash.** Oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi tabiiy uglevodlar va ularning fraksiyalarini adabiyotlarda keltirilgan metodlar bo‘yicha ajratib olindi. Bunda, spirtda eruvchi uglevodlar (SPEU), suvda eruvchi uglevodlar (SEU), pektin moddalar (PM), gemitsellyulozalar ajratib olindi va miqdori aniqlandi. Natijalar – jadvalda keltirilgan.

“Asbosim” tarkibida suvda eruvchan uglevodlar ko‘proq bo‘lib, ular oq rangdagi amorf, suvda eruvchan kukundir. Uglevodlarning monosaxarid tarkibini aniqlash uchun to‘liq kislotali gidroliz metodida namunalarni 2 n li  $H_2SO_4$  eritmasida  $100^\circ C$  da gidrolizlandi. SEU lar uchun gidroliz vaqti – 8 soatni, PM va GMS uchun 24 soatni tashkil qildi. Polisaxaridlarning barcha namunalari gidrolizatlarida qog‘oz xromatografiyasi metodi orqali glyukoza monosaxaridi mavjudligi aniqlandi. SEU gidrolizatlarida juda oz miqdorda ksiloza, arabinoza borligi ham ma‘lum bo‘ldi. Umuman olganda “Asbosim” tarkibida tabiiy uglevodlar – 71,4%, jumladan, SPEU – 4,7%, SEU – 55,2%, PM – 3,3%, GMS – 3,8%, klechatka 4,4% ni tashkil etishi aniqlandi. “Asbosim” tarkibida glyukan tipidagi suvda eruvchi uglevodlar miqdor jihatdan boshqalardan ustunligi isbotlandi.


Umumiy oqsilni ajratib olish uchun “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasini kukunsimon holga kelguncha maydalandi va atseton, atseton:efir (1:1) aralashmasi bilan yog‘sizlantirildi. Umumiy oqsil miqdorini ajratish uchun atsetonda quritilgan kukunni ishqor eritmasi bilan ekstraksiya qilindi, sentrifugalandi, oqsil eritmasidan ammoniy sulfat bilan cho‘ktirildi, oqar suvda dializ qilindi va liofillashtirildi. Ajratib olingan oqsil miqdori aniqlandi. Natijada, “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi umumiy oqsil miqdori 12,4% ni tashkil etishi kelib chiqdi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi umumiy oqsil miqdori sezilarli darajada ko‘p ekanligi isbotlandi. Umumiy oqsil tarkibidagi aminokislotalarni aniqlashda ularni identifikatsiyalash uchun lizin, valin, metionin, izoleysin, leysin, treonin, tirozin, fenilalanin, gistidin, arginin almashinmaydigan aminokislotalarining standart aralashmasidan foydalanildi. Natijada, “Asbosim” umumiy oqsili barcha almashinmaydigan aminokislotalarni tutishi va lizin, treonin, fenilalaninga boyligi aniqlandi. Shundan so‘ng umumiy oqsilni fraksiyalarga ajratdildi: glyutelin fraksiyasi 63,7% ni, albumin fraksiyasi 46,3% ni tashkil etdi. Olingan natija “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi oqsilning glyutelin fraksiyasi miqdori, albumin fraksiyasiga nisbatan sezilarli darajada ko‘p ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa, mazkur oziq-ovqat qo‘shilmasi aminokislotalarga boy, inson salomatligi uchun foydali ekanligiga ilmiy asos bo‘la oladi.

**“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi polifenollar miqdorini aniqlash.** Ma‘lumki, polifenollar tabiiy antibiotiklar bo‘lib, qon tarkibidagi turli zaharli moddalarni parchalash, qon aylanish tizimi organlari ishini yaxshilash

xususiyatiga ega. Shuningdek, yurak qon-tomir tizimidagi gipertoniya keltirib chiqaradigan virusologik, bakteriologik kasalliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Shu boisdan “Asbosim” tabiiy oziq-ovqat qo’shilmasi tarkibidagi polifenollar miqdorini aniqlash bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borildi. Quyida “Asbosim” tabiiy oziq-ovqat qo’shilmasi tarkibidagi polifenollar miqdorini aniqlash bo’yicha olib borilgan tadqiqot ishlari va ularning natijalari keltirilgan.

Oziq-ovqat qo’shilmasi tarkibidagi suvda eruvchan polifenollar miqdori Yaponiyaning Shimadzu kompaniyasida ishlab chiqarilgan LC-40 Nexera Lite (I) hamda Agilent-1200 (II) (avtodorator bilan jihozlangan) yuqori samarali suyuqlik xromatograflarida amalga oshirildi.

I bo’yicha Asbosim ekstraktining xromatogrammasi olindi (2-rasm) hamda natijalar qayta ishlanib 3-jadvalda keltirildi.




2-rasm. I bo’yicha Asbosim ekstrakti tarkibidagi polifenollarni aniqlash xromatogrammasi.

3-jadval.

I da aniqlangan ekstraktlardagi polifenollarning miqdori va ushlanish vaqtlari.

Flavonoidlar	Ushlanish vaqti, sek	Konsentratsiya, mg/l	100 g namunadagi miqdor, mg
Rutin	2,016	35,79	894,75
Gall kislota	-	0	0
Kversetin	2,772	16,365	409,125

II qurilma bo’yicha olingan natijalar quyidagi 3–rasm va 4–jadvalda keltirilgan.



3-rasm. II qurilma yordamida olingan polifenollar xromatogrammasi

## “Asbosim” tarkibidagi ayrim flavonoidlar, ularning konsentratsiyasi

Flavonoidlar	Ushlanish vaqti, sek	Konsentratsiya, mg/l	100 g namunadagi miqdor, mg
digidrokversetin	9,386	13,864	346,6
lyuteolin	4,67	5,06	126,5
senerozid	10,29	23,364	584,1
salidrozd	7,154	7,568	189,2

Yuqoridagi 3-, 4-jadvallar va 2-, 3-rasmdagi xromatogrammalardan ko‘rinib turibdiki, “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida polifenollardan rutin (894,75 mg/100g), kversetin (409,125 mg/100g), digidrokversetin (346,6 mg/100g), lyuteolin (126,5 mg/100g), senerozid (584,1 mg/100g), salidrozd (189,2 mg/100g) miqdori sezilarli darajada ko‘p ekanligini ko‘rish mumkin.

Rutin, kversetin, digidrokversetin, ayniqsa, kam sonli o‘simliklarda uchraydigan noyob senerozid polifenollari organizmda qon aylanishini normallashtirib, tromb hosil qiluvchi toksinlar, zararli moddalarni parchalab, dyuretiklik xususiyati bilan qon bosimini tushishiga yordam beradi.

**“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasining antioksidant faolligini aniqlash.**

“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasining antioksidant faolligi adrenalinning *in vitro* sharoitida autoksidlanish reaksiyasini ingibirlanishi metodi yordamida spektrofotometrik usulda aniqlandi. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan:

## “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasining antioksidant faolligi

AF, %	Asbosim	12,50	10,43	9,43	8,05	10,1
	Nazorat (Vitamin C)	60,42	47,87	39,31	27,55	43,79
Tekshirilayotgan ekstrakt	1-minut	3-minut	5-minut	10-minut	O‘rtacha	

Yuqoridagi 5-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasining suvli ekstraktining antioksidantlik faolligi o‘rtacha 10,1% ni tashkil etmoqda.

**“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasining yurak faoliyatiga ta‘sirini aniqlash natijalari.** “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasining yurak faoliyatiga ta‘risi o‘rganildi. Mazkur tadqiqot ishi bo‘yicha klinik sinovlar “Oltin Vodiy Tabiati” shifoxonasi 2023-yil 12-sentyabrdan 2023-yil 12-noyabrgacha bo‘lgan davrda o‘tkazildi. Bunda EKG natijalariga ko‘ra yurak faoliyati anormal holatda bo‘lgan bemorlarga kuniga 2-3 marta – ertalab va kechqurun ovqatdan 30 daqiqa oldin yoki ovqatdan bir soat o‘tgach, bir choy qoshiq (3 g) paket ichidagi “Asbosim” ni 150-200 ml qaynatilgan suvga solib, 5-10 daqiqa damlab ichirildi. Klinik sinovda 30 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan 10 nafar erkaklar va ayollar ishtirok etdi. 10 kishidan 3 nafari o‘xshash shikoyatlar va kasalliklarning namoyon bo‘lishi bilan nazorat guruhi qilib belgilandi. Tadqiqot 30 kun davom etdi. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan 06.04.2014 y. tasdiqlangan, M.M.Ro‘ziyeva tahriri ostidagi "Oziq-ovqat uchun biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarining samaradorligini tekshirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar" dan foydalanildi. Tekshirish davomida tadqiqotning umumiy qon tahlili, umumiy siydik

tahlili, elektrokardiogramma, bemorlardan anketa so‘rovi nazorat usullari amalga oshirildi.

Biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasining qo‘llash samaradorligi mezoni sifatida tajriba nazorat guruhidagilarda o‘tkazilgan laboratoriya va funksional tadqiqotlar va anketa so‘rovi natijalariga ko‘ra shikoyatlarning jiddiyligi dinamikasi olindi. Biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasining ta‘sirini o‘rganish jarayonida bemorlarning shikoyatlari nazorat qilindi, bemorlarning umumiy salomatligi va laboratoriya va funksional tadqiqotlar natijalari baholandi. Biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini qo‘llash natijasida bemorlardagi charchoq, asabiylashish, shishishning pasayishi va umumiy kayfiyatning yaxshilanishi, bardamlikning ortishi va qon bosimining normallasishi, shikoyatlarining kamayishi qayd etildi. Bemorlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar davomida nojo‘ya ta‘sirlar qayd etilmadi. Nazorat guruhidagi bemorlar biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasi terapiyasi olmadilar.

Tadqiqot natijasiga ko‘ra, “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasining quyidagi ko‘rsatkichlari tasdiqlandi: markaziy asab tizimining faolligini saqlab turish uchun qonni kislorod bilan to‘yintirishga yordam beradi, qon bosimini normallashtiradi, jigar va o‘t pufagining funksiyalarini qo‘llab-quvvatlaydi, ishtahani yaxshilaydi, charchoqni yo‘qotadi, bosh og‘rig‘ini qoldiradi, tonusni oshiradi, immunitetni ko‘taradi, teri rangini tabiiy holatga keltiradi, organizmga yoshartiruvchi ta‘sir ko‘rsatadi, impotensiya va frigidlikni davolashda yordam beradi.

**“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasining gipertoniya kasalligini davolash xususiyatini o‘rganish.** O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan berilgan ruxsatnoma asosida ishlab chiqarilgan “Asbosim” nomli tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasining qon bosimini tushirishga ta‘sirini o‘rganish maqsadida Jalaquduq tumanida joylashgan “OLTIN VODIY TABIATI” shifoxonasida klinik sinovlar o‘tkazildi.

Tajriba 2023 yil mart-dekabr oylarida amalga oshirildi. Unda birlamchi kasallik sifatida gipertoniya kasalligiga chalingan 30 nafar bemorlar ko‘ngilli ravishda, o‘z ixtiyorlari bilan ishtirok etdilar. Ularning 17 nafariga 1-darajali gipertoniya, 13 nafariga esa 2-darajali gipertoniya taxsisi qo‘yilgan. Bemorlar gipertoniya kasalligi darajasiga qarab 2 guruh (1-guruh: 1-darajali gipertoniya chalingan bemorlar, 2-guruh: 2-darajali gipertoniya chalingan bemorlar) ga ajratildi. Birinchi guruh bemorlarning jinsi va yoshiga qarab yana ikkita (A – 30-55 yosh oralig‘idagi erkaklar, B – 30 – 55 yosh oralig‘idagi ayollar) guruhlarga bo‘lindi. Ikkinchi, 2-darajali gipertoniya chalingan bemorlar 55-75 yosh oralig‘idagi katta yoshli bemorlar bo‘lib, ular shartli E guruh etib belgilandi.

1-darajali gipertoniya chalingan bemorlar 8 oygacha, 2-darajali gipertoniya chalingan bemorlar esa 10 oygacha bo‘lgan muddatda, ya‘ni qon bosimi normal-barqaror holatiga kelguncha “Asbosim” tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasi yordamida davolandi.

“Asbosim” ni qo‘llash bo‘yicha retsept: 1-darajali gipertoniya bilan kasallangan bemorlarga kuniga 3 mahal – ovqatdan 1 soat keyin, hamda bosim


ko‘tarilganda qo‘shimcha bir choy qoshiq (2 g) “Asbosim” ni 200 ml qaynatilgan suvga solib, 5-10 daqiqa oralig‘ida damlab ichirildi.

2-darajali gipertoniya bilan og‘rigan bemorlarga kuniga 3 mahal ovqatdan oldin 3 mahal – ovqatdan 1 soat keyin, hamda bosim ko‘karilganda sutkasiga qo‘shimcha 3 martagacha ikki choy qoshiq (4 g) “Asbosim” ni 200 ml qaynatilgan suvga solib, 5-10 daqiqa oralig‘ida damlab ichirildi.


Har ikkala toifadagi bemorlarga ham ushbu retsept dastlabki bir oy davomida shifokorlar tomonidan tavsiya etilgan zamonaviy dorilar bilan birga qo‘llanildi. Davolanishning keyingi oylarida ushbu muolaja zamonaviy dorilarsiz amalga oshirildi. Dastlabki bir oy muddatda bosqichma-bosqich zamonaviy preparatlarni ichirish dozasi kamaytirib borilib, keyin to‘xtatildi. Faqatgina, 2-darajali gipertoniya chalingan ayrim bemorlarga qon bosimi kuzatilayotgan maksimal holatga ko‘tarilganda birinchi yordam sifatida sintetik dorilar – mahalliy diuretiklardan 2 oy davomida foydalanildi. Davolanishning butun davri davomida bemorlarning sistolik (S) va diastolik (D) qon bosimlari normal (S – 120-129 mm Hg ust.; D – 80-84 mm Hg ust.) bosimga nisbatan qanchaga ko‘tarilgani har 3 soatda o‘lchab, qayd etib borildi. Bemorlarning qon bosimlari Korotkov usulida o‘lchangan.

Davolash davrida bemorlar qon bosimini ko‘tarishi mumkin bo‘lgan tashqi omillar va vositalardan ajratildi. Bemorlar organizmidagi boshqa kasalliklarni davolashda ham qon bosimiga ta‘sir qilmaydigan vositalardan foydalanildi. Bemorlarning ovqatlanish rejimi va ovqatlar sifatiga ham alohida e‘tibor berildi. Jumladan, achchiq, sho‘r, o‘ta yog‘li, hamda hazm bo‘lishi uzoq muddat talab qiladigan ovqatlar berilmadi.


4-, 5- va 6-rasmlardan ko‘rinadiki, o‘tkazilgan klinik tadqiqot natijasida “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi yordamida 1-darajali gipertoniya chalingan (A va B guruh) bemorlarning eng yuqori qon bosimi 8 oy mobaynida, 2-darajali gipertoniya chalingan bemorlarning eng yuqori qon bosimi esa, 10 oygacha bo‘lgan muddatda normal holatga kelganini ko‘rish mumkin. 4-rasmdagi diagrammadan A guruh (erkak) bemorlarning sistolik qon bosimining o‘rtacha ko‘rsatkichi davolanishning 7- va 8-oylarida, diastolik qon bosimining o‘rtacha ko‘rsatkichi esa, 6-, 7- va 8-oylarida normal-barqaror holatga kelganligini ko‘rish mumkin. B guruh (ayollar) bemorlarda esa (5-rasmdagi diagramma) bosimning har ikkala turi ham (S va D) 6-oydan boshlab normal-barqaror holatga kelganligini 5-rasmdagi diagrammadan ko‘rish mumkin.



4-rasm. 8 oy davomida A-guruh (erkak) bemorlar qon bosimining o'zgarish dinamikasi



5-rasm. 8 oy davomida B-guruh (ayol) bemorlar qon bosimining o'zgarish dinamikasi.



6-rasm. 10 oy davomida E-guruh bemorlar qon bosimining o'zgarish dinamikasi.

Bu, "Asbosim" tabiiy oziq-ovqat qo'shilmasi bir xil yoshdagi va bir xil kasallik darajasidagi ayol jinsidagi bemorlarga, erkaklarga nisbatan kuchliroq, hamda samaraliroq ta'sir ko'rsatishini anglatadi. 4-rasmdagi diagrammada A guruh bemorlarning 2- va 3-oylardagi eng yuqori qon bosimining o'rtacha qiymati deyarli o'zgarmaganligi ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Buni, erkaklar organizmining avvalgi iste'mol qilgan dori vositasiga ayollarga nisbatan o'rganuvchanroq ekanligi bilan ham tushuntirish mumkin.

Shuningdek, 6-rasmdagi diagrammadan "Asbosim" oziq-ovqat qo'shilmasi yordamida 2-darajali gipertoniya chalingan bemorlarni ham mahsus parxezlar yordamida davolash mumkinligi, lekin bu, 1-darajalilarga nisbatan uzoqroq vaqt talab qilishini ko'rish mumkin. Ushbu 3-rasmdagi diagramma, gipertoniyaning 2-darajasiga chalingan bemorlar qon bosimining o'rtacha darajasi 8-oydan boshlab normal-barqaror holatga kelganini ko'rsatmoqda.

O'tkazilgan klinik tadqiqot natijasida "Asbosim" tabiiy oziq-ovqat qo'shilmasi turli darajadagi gipertoniya kasalligini davolash xususiyatini namoyon etishi aniqlandi. Ushbu oziq-ovqat qo'shilmasi yordamida 1-darajali gipertoniya chalingan 30-55 yosh oralig'idagi ayollarni 6-7 oy davomida, erkaklarni esa 7-8 oy davomida davolash mumkinligi isbotlandi. "Asbosim" tabiiy oziq-ovqat qo'shilmasining kunlik dozasini 2 barobarga oshirgan holda, 2-darajali gipertoniya chalingan, 55-75 yosh oralig'idagi bemorlarni 8-10 oy mobaynida davolash mumkinligi asoslandi. "Asbosim" tabiiy oziq-ovqat qo'shilmasi

yordamida davolangan bemorlarda davolangandan so'ng hech qanday salbiy holatlar va kasallik asoratlari kuzatilmadi.

**“Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasini TIF TN bo‘yicha sinflash natijalari.** O‘simlik ekstraktlari va boshqa qo‘shilmalarni masalan meva konsentratlari, asal, fruktoza, glyukoza, vitamin va minerallar, aminokislotalar qo‘shilgan yoki qo‘shilmagan, draje, tabletkalar, kukun, yoki kapsula ko‘rinishida bo‘lgan biologik aktiv qo‘shilmalari 2106 90 980 9 tovar kodi bilan tasniflanadi. Lekin, ushbu tovar podsubpozitsiyasida aynan ma’lum kasallikni davolash uchun ishlab chiqilgan shifobaxsh kompozitsion oziq-ovqat qo‘shilmalarini sinflash nazarda tutilmagan.

Shularni inobatga olib, muammoni hal qilish maqsadida, o‘simliklar asosida tayyorlangan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun tadqiqotchi tomonidan TIF TN dagi 1212 pozitsiyaga yangi “dorivor o‘simliklardan, yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalari” uchun – 121230, subpozitsiyasi, hamda shu subpozitsiya bo‘yicha “tarkibida avenatsin, kversetin, pulegon va uning hosilalari, karvakrol, karnozol, rozmaritsin tabiiy birikmalarini saqlovchi dorivor o‘simliklar yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalari” uchun – 1212300001 kod raqami bojxona amaliyotiga joriy etilgan. Shundan so‘ng bir nechta tadqiqotchilar tomonidan 1212 30 100 0 podsubpozitsiyasi bo‘yicha ham bir nechta kod raqamlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan.

Biz ham yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yangi ishlab chiqilgan “Asbosim” tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasiga Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasining aynan 1212 30 - “dorivor o‘simliklardan, yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalari” subpozitsiyasi bo‘yicha sinflab, unga: “zira, jambil, yalpiz, kiyiko‘t, ajgon o‘simliklari asosida tayyorlangan, tarkibida mentol, lyutionin, rutin, digidrokversetin, senerozid, salidrozd birikmalarini saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari, dori vositasi emas” uchun – 1212 30 150 2 kod raqami tavsiya etildi.

Dissertatsiyaning **““Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqish, kimyoviy tarkibi va biologik faolligini aniqlash usullari (eksperimental qism)”** deb nomlangan III bobida zira, jambil, yalpiz, kiyiko‘t, ajgon o‘simliklari asosida “Asbosim” tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqish, uning kimyoviy tarkibi va biologik faolligini aniqlash bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning metodlari keltirilgan

## XULOSA

“Gipertoniya kasalliklarini xalq tabobati bilan davolash uchun tovarlar olish va ularni sinflash” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Xalq tabobatida gipertoniya kasalligini davolash va oldini olish maqsadida qo‘llaniladigan zira, yalpiz, ajgon, jambil, kiyiko‘t o‘simliklari asosida “Asbosim” nomli yangi tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasi ishlab chiqildi.

2. “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi uchun retsept, tashkilot standarti, texnologik yo‘riqnomasi ishlab chiqildi hamda shu asosda ushbu oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish uchun O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligi tomonidan ruxsatnoma olindi.

3. “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida qon bosimini tushirishga yordam beruvchi vitamin C miqdori boshqa shu tipdagi vitaminlarga nisbatan yuqori ekanligi, hamda suvda eruvchan vitaminlar miqdori C>PP>B2>B6>B9>B2 tartibda kamayib borishi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida aniqlandi.

4. Induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektometriya usulida “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi 61 ta makro- va mikroelementlar miqdori aniqlanib, ular orasida Na, K, Ca, P, Mg, Al, Fe, Cu, Sr, Zn, Mn kabi yurak qon-tomir tizimi faoliyatini normallashtirish xususiyatiga ega bo‘lgan hayotiy zarur elementlarning miqdori boshqalarga nisbatan yuqori ekanligi asoslandi.

5. “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi uglevodlar miqdori aniqlanganda, suvda eruvchan uglevodlar miqdoriy jihatdan spirtida eruvchi uglevodlar, pektin moddalar va gemisellulozalarga nisbatan yuqori ekanligi isbotlandi. Shuningdek, umumiy oqsil miqdori 19,4% ni tashkil etishi, hamda uning 63,7% i glyutelinar, 46,3% i esa albuminlar ekanligi kimyoviy analiz yordamida aniqlandi.

6. “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida qon tarkibidagi toksinlar va tromb hosil qiluvchi moddalarni parchalash xususiyatiga ega bo‘lgan rutin, kversetin, digidrokversetin, lyuteolin, hamda kam sonli o‘simliklar tarkibida uchraydigan, dyuretik xususiyatli senerozid, salidrozd kabi polifenollar mavjud ekanligi YuSSX usuli yordamida isbotlandi.

7. Klinik tadqiqotlar “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasining yurak faoliyatini yaxshilash, hamda gipertoniya kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, gipertoniya kasalligini “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasi yordamida davolash, ayrim sintetik dori vositalari bilan davolashga qaraganda har 10 nafar bemor hisobiga 1 682 450 so‘m iqtisodiy samaradorlik keltirishi asoslandi.

8. “Asbosim” oziq-ovqat qo‘shilmasiga TIF TN bo‘yicha sinflanib, unga “zira, jambil, yalpiz, kiyiko‘t o‘simliklari asosida tayyorlangan, tarkibida mentol, lyutionin, rutin, digidrokversetin, senerozid, salidrozd birikmalarini saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari, dori vositasi emas” uchun – 1212 30 150 2 raqami ishlab chiqilib, bojxona amaliyotiga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2024 yil 20 iyundagi №17/05-24-1186 -son ma‘lumotnomasi).

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
№ DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05 ПРИ АНДИЖАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ТЕМИРХУЖАЕВА ОДИНАХОН НАЖМИДДИНОВНА**

**ПОЛУЧЕНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ТОВАРОВ ДЛЯ ЛЕЧЕНИЯ  
ГИПЕРТОНИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ СРЕДСТВАМИ НАРОДНОЙ  
МЕДИЦИНЫ**

**02.00.09 –Химия товаров  
14.00.41 – Народная медицина**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
доктора философии по химическим наукам**

**Андижан – 2024**

Тема докторской диссертации зарегистрирована под номером B2024.4.PhD/K855 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

(Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Научного совета ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)). ([ziyonet.uz](http://ziyonet.uz)).

Научные руководители:	<b>Аскарров Иброхим Рахмонович</b> доктор химических наук, профессор <b>Муминов Миржалол Муқимжон угли</b> доктор химических наук, доцент
Официальные оппоненты:	<b>Хужаев Вахобжон Умарович</b> доктор химических наук, профессор <b>Маматкулова Сурайё Абдусаматовна</b> доктор философии по химии, доцент
Ведущая организация:	Андижанский государственный медицинский институт

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета за номером DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 в Андижанском государственном университете «21/11» 2024 года. (Адрес: 170100, Андижанское шоссе, ул. Университетская, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33)

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Андижанского государственного университета (зарегистрирован под номером). (Адрес: 170100, Андижанский район, ул. Университета, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33, электронная почта: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz)).

Автореферат диссертации роздан «11/11» 2024 года.  
(Отчет реестра под номером от «11/11» 2024 года.)



**Ш.М.Киргизов**  
Президент Научного совета  
по присуждению научных степеней  
д.х.н., профессор  
**Ш.Х.Абдуллоев**  
исполняющий обязанности научного секретаря  
Научного совета по присуждению научных  
степеней, д.х.н., профессор  
**М.М.Хожиматов**  
Президент научного семинара Научного  
совета по присуждению научных степеней  
д.х.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Определение химического состава лекарственных растений и разработка на их основе натуральных пищевых продуктов, полезных для организма человека, является одной из важнейших актуальных проблем в мире. В связи с этим разработка натуральных, безвредных и экологически чистых пищевых добавок, используемых в качестве дополнения к синтетическим лекарственным средствам, содержащих биологически активные соединения, макро- и микроэлементы, на основе частей лекарственных растений разных периодов вегетации, и их применение в народной медицине имеет особое значение.

